



RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNI KORREKSION- PEDAGOGIK VA RIVOJLANTIRISH ISH YO'NALISHLARI

Ergasheva Shoira To'likovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus

pedagogika 2-kurs (Defektologiya) talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashuvining kelib chiqish sabablari, turlari hamda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni korreksion-pedagogik va rivojlantiruvchi ish yo'nalishlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ruhiy rivojlanishi sustlashish, tayanch – korreksion, gnozis, praksis, intellect, diagnostika - monitoring, psixokorreksion ish, inklyuziv ta'lim.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 13-oktabrdagi PQ – 4860 – son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2021 yil 12 – oktabrdagi VM 638 – son qarori chiqardi. Unga ko'ra umumta'lim maktablarida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch – korreksion sinflar toifasiga ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham kiradi.

Ruhshunos va tarbiyashunoslar tomonidan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'rganish ishlari mamlakatimizda 60 – yillardan keyin boshlanib, 70 – yillargacha bo'lgan ruhshunoslik va tarbiyashunoslik ishlari umumiy yo'nalish asosida amalga oshirilib, bular ichiga asosan o'zlashtirmovchi o'quvchilar kiritilib, ularning kichik bir guruhini ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tashkil qilgan. Hozirgi kunga kelib o'zlashtirmovchi o'quvchilarning yarmini ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tashkil qilmoqda. T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lyubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikoshina, K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov, N.A.Sipina,



R.D.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5,8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

“Ruhiiy rivojlanishi sustlashish” atamasi 1959 yilda Grunya Efimovna Suxareva tomonidan taklif qilingan.

Bolalarning ruhiy rivojlanishi – bu turli xil atrof – muhit omillari ta'siri ostida amalga oshiriladigan yuqori aqliy funksiyalarning ketma – ket yetuklashuvining murakkab, genetik jihatdan aniqlangan jarayonidir. Asosiy aqliy funksiyalarga quyidagilar kiradi: gnozis (tanish, bilish, idrok etish), praksis (maqsadli harakatlar), nutq, xotira, o'qish, yozish, hisoblash, diqqat, fikrlash (analitik va sintetik faoliyat, taqqoslash va tasniflash, umumlashtirish qobiliyati), his – tuyg'ular, hissiyotlar, iroda, xulq – atvor, o'z – o'zini hurmat qilish va boshqalar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bilish faoliyati – intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlari birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashuvining sabablari:

Tibbiy – biologik – bosh miyada yengil shikastlanish kuzatilishi, genetika, jarohatlar, markaziy asab tizimining funksional qo'zg'alish jarayonlarining zaifligi.

Ijtimoiy – psixologik – noto'g'ri hayot tarzi, bolani rad etish, alkogolizm, giyohvandlik, noto'g'ri tarbiya uslublari, to'liq bo'lmagan oila omili, ota – onalarning past ta'lim darajasi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruxga bo'linadi:



1. Yengil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1–3 yil ta’lim – tarbiya olganlaridan keyin o’qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.

2. Ruhiy rivojlanishda sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o’qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog’lom tengdoshlari qatorida o’zlashtira olmaydi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishlashning “Diagnostika va monitoring” yo’nalishi:

PEDAGOG-PSIXOLOG	O’QITUVCHI-LOGOPED	TARBIYACHI
Bilish jarayonlari va hissiy-irodaviy sohaning rivojlanish darajasi	Nutqni rivojlantirish darajasi	Bilish faoliyati
Maktabga tayyorgarlik darajasi	Bilish faoliyati	Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish
Oiladagi ota-ona va bola munosabatlari, bolalar shaxslararo munosabatlar	Shaxsiy xususiyatlar	Shaxsiy xususiyatlar
Shaxsiy xususiyatlar	Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish	Nutqni rivojlantirish darajasi

Tuzatish va rivojlantirish ish yo’nalishi:

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni psixologik tuzatishning asosiy maqsadi ularning aqliy jarayonlarini rag’batlantirish va bilish faoliyati uchun ijobiy



motivatsiyani shakllantirish orqali ularning intellektual faoliyatini optimallashtirishdir. Bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun bunday bolalar bilan psixokorreksion mashg'ulotlar ham individual, ham guruhda o'tkazilishi mumkin. Muhimi, tarbiyachi, nutq terapevti, o'qituvchi-psixolog va boshqa mutaxassislar tomonidan bolaga qo'yiladigan talablarning birligidir.

Korreksion – pedagogik ish yo'nalishi:

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni sensorikasi va diqqatini rivojlantirish, fikrlashini, elementar miqdoriy tasvirlarni shakllantirish, atrof-muhit bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, savodxonlikni o'rgatish (qo'l motorli ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'lni yozishga tayyorlash, boshlang'ich savodxonlikni o'rgatish).

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish bolada tuzatish ishlarini olib borishda bir talay yengilliklar yaratadi, ammo ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchilarning saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yetarli darajada rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Natijada sog'lom bolalar egallashi zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtira olmaydi, egallashi zarur bo'lgan bilimlarni egallay olmaganliklari tufayli o'quvchilar darsdan zerikib qoladi, chunki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotirasi ancha sust bo'lganligi sababli darslar qayta – qayta takrorlanadi. Bundan tashqari bunday bolalar darslarni yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ota – onasidan va ustozlaridan eshitgan tanbehlari sababli bolalarning rivojlanishi yana ham yomonlashadi.

Xulosa qilib aytganda ruhiy rivojlanishi sustlasish –bu aqliy zaiflik emas, ularni erta aniqlab tegishli davo choralari bilan birgalikda tuzatish ishlari olib borilsa , shuningdek ota – onalar bilan hamkorlikda ishlansa bolani tengqurlariga yetib olishiga imkon yaratadi. Hozirgi kunda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ko'payib ketishi dolzarb muammo sanalmoqda, Sog'liqni Saqlash Vazirligining bergan ma'lumotlariga



ko'ra ruhiy rivojlanishi sustlashgan insonlarning 22 foizini bolalar va o'smirlar tashkil qilmoqda. Mamlakatimizda bunday bolalarni erta aniqlab tuzatish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Zero L.S.Vigotskiy aytganidek vaqtida tuzatilmagan nuqson keying nuqsonni yetaklab keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.U. Xamidova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2018.
2. Карпунина О.И., Рябова Н.В. Специальная педагогика в опорных схемах. – М. 2002.
3. Ермаков В.П., Куличева Н.И. Профорентация слепых школьников. – М., 1982
4. Ермаков В.П. Основы обучения и профессиональной ориентации слепых слабовидящих школьников. – М., 1987.
5. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – T.: "O'qituvchi", 1994 y.
6. Mo'minova L.R. Nogiron bolalarni oilada tarbiyasi. 1996 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 638-sonli, 12.10.2021-yil. Toshkent.
8. ilmfanvata'lim.uz.
9. М.Земцова. Пути компенсации слепоты. – М., 1995.
10. У.Кулагин. О наглядных пособиях для школ слепых, воспринимающих с помощью осязания. – М., 1991.
11. L. Mo'minova, D. Nazarova "Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati" RTM, T., 2012 y.



12. Казаков А.А. Организация кабинета природоведения для школ слепых и слабовидящих. – Свердловск, 1987.

13. М. Ю. Ауурова “Logopediya” – Т.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2007 у.